

**YILLIK TAYYORGARLIK SIKLIDA YOZGI BIATLONCHILARNING  
MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLKIGINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASI**

*Saylieva Feruza To'xtamirot qizi  
CHDPI Jismoniya tarbiya va spoort mashg 'ulotlari nazariyasi  
metodikasi yo 'nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola “Yillik tayyorgarlik siklida yozgi biatlonchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlkigini rivojlantirish metodikasi” haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Sport, metodika, jismoniy, harakat, biathlon, sikl.

So'nggi vaqtarda biatlon bo'yicha jahon arenalarida musobaqa faoliyatining intesivlashuvi (tezlashuvi) tomonga qaratilgan o'zgarishlar kuzatilmoxda, buning sababla ri: kesishish darajasi yuqori bo'lган joylarda yugirish tezligining keskin darajada oshishi, musobaqa dasturiga masofasi qisqa aralash estafetaning kiritilishi, musobaqa mavsu mida sprinter poygalar sonining ko'payishi. Hozirgi vaqtida kuch sifatlarini rivojlantiris hning juda dolzarbligi biatlondagi zamonaviy tendensiyalar (yo'nalishlar) va poygalar spetsifikasi (o'ziga xoslligi), ya'ni masofani qurolni ko'tarib olgan holatda kichik doi rada takroran yugurib o'tish va ko'tarilishlarni yengib o'tishda ko'rindi. Biatlonlarni

kuch jihatdan tayyorlashga ko'p yillik sport mahoratini shakillantirish jarayoni da vomida, sportchining ancha yosh davridan boshlab katta e'tibor berish zarur, lekin bunda boshlang'ich mutaxassislashtirish bosqichi asosiy hisoblanadi ushbu bosqich 13-14 yosh davriga to'g'ri keladi, bu vaqtida eng samarali mashqlarni, metodlarni izlab topish uchun, pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy nuqtalarini joyjoyiga qo'yish uchun trenirovka jarayonini differensatsiyalash amalga oshiriladi.

Poyga natijalari, ko'pincha, ko'tarilishlarni yengib o'tishdagi tezlik bilan belgilanadi, ya'ni bu biatlonchining maxsus kuch jihatdan chidamliligi demakdir, o'z navbatid a sportchining ushbu sifati kuch jihatdan rivojlanishning maksimal darajasiga va tezkor-kuch sifatlarining kompleks (yalpi) namoyon bo'lishiga bog'liqdir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sifatlarni rivojlantirish uchun eng maqbul yosh davri 13-14 yosh hisoblanadi va bu o'z navbatida zamonaviy pedagogik ta'sir nuqtalarini belgilashni taqazo etadi.

Sport inventari (anjomlarining) va texnologiyalarning doimiy modernizatsiyalashi shi (zamonaviylashishi) tufayli yugurish tezligini ortishi chang'ining yaxshi sirg'alishi ni ta'minladi va bu konkida yurish harakatlar texnikasining biomexanikasidagi, mushak faoliyati ish rejimlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'la boshladi. Xususan, itarish d

astagi

qisqardi, sikllarning almashish chastotalari o'sdi, sportchi tanasining hamma qismlaridagi mushak guruhlarining konsentrashgan va sinxron qisqarishida itarilish harakatlari ancha □portlovchi□, shiddatli ko'rinishini oldi.

Shu sababli poyga vaqtida tana qismlarida mushak qisqarishlarini musobaqaviy rejimini modellashtirish sharoitida kuch jihatdan chidamlilik va uning komponentlarini rivojlantirishning samarali vosita va metodlarin izlab topish zarur. Shu bilan birga, oxirgi yillarda yosh biatlonchilarini tayyorlashda erta mutaxassislashuv muammosi mavjud, ya'ni ko'p hajmdagi maxsus mashqlardan foydalanish kelajakda (bo'lg'usida) sport nati jalarida o'sishnii kamaytirib yuborishi mumkin. Ma'lumki, mushaklarning muayyan bir guruhiga bir xil lokomotor harakatlarning bir xil rejimda ta'sir ko'rsatishi intensifikatsiya (kuchayish) sharoitida bolalar tana tizimini kuchsizlantiradi (zo'riqtiradi), jismoniy rivojlanishni chegaralaydi, jismonan zo'riqish va jarohatlarga sabab bo'ladi. Shu sababi yosh sportchilarning trenirovka jarayonini xilma-xil qilish, shu jumladan harakatlar biomexanikasining ko'pqirrali prinsiplpriga va mushaklar ishlashi rejimiga asoslangan umumi kuchga oid mashqlarni qo'llash orqali barcha mushak guruhlarini kuchaytirish zarur.

Sport zaxirasini tayyorlashda zamonaviy trenirovka jarayonini tashkillashtirish va boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari (L.P. Matveyev; V.N. Platonov), shu jumladan chang'i sporti va biatlonda (T.I. Ramenskaya; V.V. Farbey; I.G. Gibadullin; V.F. Mamatov); sportning siklik turlarida kuch jihatdan tayyorgarlikning nazariy asoslari (M.Ya. Nabatnikova; Yu.V. Verxoshanskiy, V.M. Zatsiorskiy, V.N. Seluyanov), shu jumladan chang'i sporti va biatlonda (Ya.M. Savitskiy; N.G. Vlasov; K.S. Dunayev); trenirovka sharoitida musobaqaviy mashqlarni modellashtirish haqidagi konsepsiylar (M.A. Godik, Yu.V. Verxoshanskiy, Z.B. Belotserkovskiy, N.V. Astafev). Tadqiqot metodologiyasi asosini biatlonchilarning trenirovka jarayoniga sistemali (tizimli) yondashuv prinsiplari (tamoyillari) tashkil kiladi.

ta'kidlashlaricha, tayyorgarlik davrida 13-

14 yoshli biatlonchilarning kuch jihatdan chidamliligini rivojlantirish bo'yicha trenirovkaning samaradroligi ortadi, agar:

- tayyorgarlikni uchta blokka(qism) bo'lib o'tkazilsa: birinchi blok (qism) ko'proq oksidlovchi mushak tolalarining sonini ko'paytirishga yo'naltirilgan bo'lsa; ikkinchisi-mushak to'qimasining oksidlovchi xususiyatlarini oshirishga yo'naltirilsa; uchinchisi-maxsus kuch bilan ishslashning chidamlilik darajasini oshirishga yo'naltirilsa;

- kuch jihatdan chidamlilikning tarkibiy qismlarini (komponentlarini) mikrotsikllarni rejashtirish strukturasidagi alohida trenirovka mashg'ulotlarida differensial rivojlanish

maqsadidagi modul sifatida ko‘riliши, бунда mashg‘ulotlar yo‘nalishi yosh davrlari xu susiyatlari va bloklarning vazifalariga mos kelishi kerak bo‘lsa ;

- tayyorgarlikning qorsiz ob-

havodagi butun davrida tana qismlari mushak guruhlarning(mushakning statodinamik va aralash rejimda ishlashida ) lokal aerob va anaerob ko‘rinishdagi kuch jihatdan chid amlilagini rivojlantirish uchun alohida trenirovka mashg‘ulotlari qo‘llanilsa;

- trenirovkada sakrashni imitatsiya qiluvchi va skandinav tayoqlari bilan yugurish mash qlari, shuninglek harakatlar biomexanikasi strukturasiga

va mushak qisqarishi rejimiga o‘xshash, trassa relefi ayrim joylarida musobaqaviy yug urish bilan maxsus –tayyorgarlik mashqlari o‘tkazilsa;

Xususan, xozirgi kundagi musobaqa faoliyati tendensiyalari (yo‘nalishlari)ni, tay yorgarlik bosqichlaridagi vazifalarini, yosh biatlonchilarning yosh xususiyatlarini hiso bga olgan holda kuch jihatdan chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan trenirovka jaray onini qorsiz davrda tashkil etish haqidagi ma’lumotlar berilmagan (ko’rsatilmagan); mushakning dinamik va statodinamik rejimda ishlashida tana qismlari mushak guruhla rining aerob va anaerob ko‘rinishdagi kuch jihatdan chidamliligin lokal va kompleks ( yalpi) rivojlantirishga qaratilgan tayyorgarlik mikrotsikllaridagi alohida trenirovka mas hg’ulotlarini rejalashtirish haqida ilmiy asoslangan axbototlar (ma’lumotlar) yetarli em as.

Butun tayyorgarlik davrida aerob va anaerob ko‘rinishdagi kuch jihatdan chidamliligin i rivojlantirishga yo‘naltirilgan trenirovka yuklamalari hajmining ratsional (oqilona) ni sbati haqidagi ma’lumotlarni to’ldirish kerak, umumiy va maxsus vositalarni , mushak qisqarishi rejimiga o‘xshash metodik texnikalarni, chang’i trassasi relefi (yuzasi)dagi j oylarda harakatlarning xarakteri va davomiyligini tanlay bilish zarur,

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.M.I. Korbit, 2007; N.G. Bezmelnitsin, 2011;

2.N.S. Zagurskiy, Yu.F. Kashkarov, G.A. Sergeyev, Ya.S. Romanova, 2016) (Kor bit M.I. Tendensiya razvitiya biatlona v mire i problemi sovershenstvovaniya strelkovo y podgotovki biatlonistov visokogo klassa / M.I. Korbit // Sovremenniy olimpiyskiy sp ort i sport dlya vsex : Materiali XI Mejdunar.nauch. kongr. Minsk, 2007. Ch.1. S.136□

3.Bezmelnitsin N.G. Isxodnoye sostoyaniye i tendensiya razvitiya biatlona na sovreme nnom etape / N.G. Bezmelnitsin // Sovremennaya sistema sportivnoy podgotovki v bia tlone : materiali Vseros. nauch. prakt. konf. / SibGUFK. Omsk, 2011. S. 46□4.Zagurs kiy, N.S. Sovremennie tendensii razvitiya mirovogo biatlona / N.S. Zagurskiy, Yu.F. K ashkarov, G.A. Sergeyev, Ya.S. Romanova // Olimpiyskiy sport i sport dlya vsex XX Mejdnar. nauch. kongress. SPb., 2016. S. 262□266)..